SHOIRA ULLIBIBI OTAYEVA IJODIDA FOLKLORIZM UNSURLARI

N.F.Atajanova,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU katta o‘qituvchisi,
dots.v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19724466

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xorazmlik shoira Ullibibi Otayeva lirikasining didaktik ahamiyati folklor unsurlari yordamida ochib beriladi. Shoiraning g‘oyaviy badiiy-estetik qarashlari ko‘rsatiladi.*
Kalit so‘zlar: *shoira, lirika, folklor, badiiy g‘oya, insonparvarlik.*

Аннотация. *В данной статье на примере фольклора раскрывается дидактическое значение лирики хорезмской поэтессы Уллибиби Отаевой. Представлены идеологические, художественные и эстетические взгляды поэтессы.*
Ключевые слова: *поэтесса, лирика, фольклор, художественная идея, гуманизм.*

Abstract. *This article reveals the didactic significance of the lyrics of the Khorezm poet Ullibibi Otayeva, using folklore elements. The poet's ideological, artistic and aesthetic views are shown.*
Keywords: *poetess, lyrics, folklore, artistic idea, humanity.*

Kirish. So‘z san’atining in’ikosi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi har bir davrda insoniyat hayotining doimiy hamrohi, eng faol, eng sodda va jo‘shqin namunasi bo‘lib kelgan. U ilg‘or badiiy g‘oyalarni tashuvchi, umrboqiy asarlarni, o‘lmas badiiy timsollarni yaratgan insoniyatga teran mazmunli noyob xazinalarni taqdim qilgan. Xalq og‘zaki ijodining o‘lmas durdonalari butun kelajak avlodning ong va shuurini, fikr-mulohazasini o‘stirishda, ularning estetik zavqi, ruhiy olami va ma’naviy dunyosini boyitishda, mukammallashtirishda juda katta ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Shu sababli ham, alla, ashula, afsona-yu rivoyat, ertak va dostonlarda, shuningdek, maqollarda ham insoniyatning yuksak orzu-o‘ylari, zavq-shavqi, intilish-u kurashlari ifoda qilingan.

Adabiyotlar tahlili. Folklor namunalari o‘zining mazmunan rang-barangligi, yuksak adabiy g‘oyalar bilan yo‘g‘rilganligi, xalqning turmush tarzi, faoliyati, umuman, xalq hayotining barcha jihatlari bilan uzviy bog‘liqligi bilan ham nihoyatda diqqatga sazovordir. Adabiyotshunos U.Hamdamov qayd etganidek, “Folklor an’analari va elenemtlarini san’atkor o‘z ijodiy laboratoriyasida qay darajada ishlab, xalq uchun ahamiyatli xalqchil asarlar yaratib, kishilarni ezgu insoniy tuyg‘ular bilan tarbiyalashga o‘zining munosib hissasini ko‘rsatib berish – folklor va yozma adabiyot aloqalarini o‘rganishning asosini tashkil etmog‘i lozim”. Darhaqiqat, necha ming yillik tarixga ega xalq og‘zaki ijodiyotimiz ifodalangan zamonaviy o‘zbek adabiyoti namunlarida millatimiz o‘zligi, xalqimizning qiyofasi, dunyoqarashi, orzu-o‘ylari,

kurash-u intilishlari va yangi davr o‘zgarishlariga munosabati yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda U.Otayevaning she’rlaridagi folklorizm unsurlarini tahlil qilish, shuningdek, ijodkorlarning mazkur unsurlardan foydalanish mahoratini tadqiq qilishni maqsad qildik. Bu esa o‘z navbatida, birinchidan, og‘zaki adabiyotning individual she’riyatning shakllanishidagi ta’sirni o‘rganish va qolevarsa, millatimiz tafakkuri, ruhiyatidagi o‘ziga xosliklarni inkishof etishni taqozo qiladi.

Ijodkorlarning o‘z asarlarida maqol, matal va hikmatli so‘zlarga murojaat qilishi xususida tadqiqotchi M. Hakimov o‘z monografiyasida shunday deydi: “Yozuvchi umumxalq tili asosida badiiy obraz va xarakterlar yaratadi. Obraz va xarakterlarning individual bo‘lishi ularning turli tasviriy vositalar, shu jumladan, jonli tilning qaymog‘i bo‘lgan xalq aforizmlari – maqol, matal, hikmatli so‘zlar, iboralar badiiy-tasviriy qurol bo‘lib xizmat qiladi”. Darhaqiqat, xalq og‘zaki ijodining tadqiqotchi keltirib o‘tgan yuqoridagi namunalari ijodkorlarning badiiy asar tilini boyitishda yetakchi qurol vazifasini o‘taydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, poetik va folklorshunoslik yondashuvlari asosida Ullibibi Otayeva ijodidagi folklorizm unsurlari o‘rganildi. She’riy matnlar struktur-semantik hamda stilistik jihatdan tahlil qilinib, ularda xalq og‘zaki ijodi elementlarining badiiy funksiyasi aniqlashtirildi. Shuningdek, interpretativ (germenevtik) yondashuv orqali shoiraning g‘oyaviy-estetik qarashlari hamda didaktik yo‘nalishi ilmiy asosda yoritildi.

Tahlillar va natijalar. Ullibibi Otayeva ijodida milliy ruhning xalqona yo‘lda namoyon bo‘lishi ko‘p kuzatiladi. Aslida ijodkor o‘z olami, mohiyatini, ya’ni dunyoqarashi, muayyan kayfiyati va kechinmalarini, ruhiyatidagi to‘lqinlar, hissiyot mayllarini shu tarzda ifodalaydi.

Shoira Ullibibi Otayeva xalqning dilidagini xalqning tilida ifodalaydigan ijodkorlardandir. Uning she’rlari poetik tilining boyligi, obrazliligi va ta’sirchanligi bilan xalqqa yaqindir. Shoira lirikamizga xalqning ohori to‘kilmagan, sermazmun so‘z va iboralarini, maqol-u hikmatli so‘zlarini va obrazlarini nafaqat aynan, ba’zan sayqallab ham dadil olib kiradi:

Shu bir yolg‘on so‘zni aytma sen,
Ovozingni o‘chirsalar ham.
Shu bir chakki qadamni bosma,
Qadamingni qirqsalar hamki,
Qo‘l tort ko‘ngil tortmagin oshdan,
Mahkum bo‘lsang hamki ochlikka.
Osilma shu baland dorga sen –
Bir umrga pastda qolsang ham.

She’rda ijodkor “men”i umumbashariy tashvishlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Yolg‘on so‘zlamaslik va yolg‘onlarga qurbon bo‘lmaslik, noto‘g‘ri yo‘llarga qadam bosmaslik – shoiraning o‘z hayotiy qarashlari badiiy ifoda uyg‘unligida qalamga olingan. She’rning yakuniy xulosasi ham mashhur xalq maqoli “Osilsang baland dorga osil, oyog‘ing yerga tegmasin”ni shoira talqinidagi “Osilma shu baland dorga sen, bir umrga pastda qolsang ham” tarzidagi yangicha badiiy ifodasini guvohi bo‘lamiz. Agar inson baland dorga osilsa ham shu dor dorligicha qoladi, ya’ni balandlarga bo‘y cho‘zmaydi, garchi shu kishi unga osilsa-da. Shoira ushbu satrlari orqali birinchidan, insonning faqat o‘z istaklari olamida o‘ralashib qolmaslikni, jamiyatga, atrofdagi insonlarga ham foydasi tegishdek ijtimoiy g‘oyani ilgari sursa, ikkinchidan, inson tabiatidagi kamtarlik, xokisorlik kabi xislatlarni “boshing osmonda bo‘lsa ham, oyog‘ing yerda bo‘lsin”, degan xalq donishmandligining falsafiy mohiyatini teran ifodalaydi. Shu o‘rinda shoir Matnazar Abdulhakimning Ullibibi Otayeva satlariga hamohang misralari esga keladi: “… Bir kun emas, bir kun, nihoyat, Boshim senga, ey osmon, yetsa… Osmon! Boshim bo‘lmaysan aslo, Faqat… boshim osmon bo‘ladi!” Bu “hikmatli so‘zlar” na izoh, na bir tahlilni talab qiladi. Xalqdan olib, xalqqa bergan ijodkorning otashin so‘zlari…

Ullibibi Otayeva she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning xalq ijodiga nihoyatda yaqinligidir. Shoira o‘z she’rlarida nafaqat xalq ruhi, tafakkuri, qalbidagi kechinmalarini, ularning orzu-umidlari-yu intilishlarini ifodalaydi, balki shu bilan birga ularning fikrlash tarzini, badiiy tafakkuridagi o‘ziga xosliklarni, obrazlar olamini chuqurroq o‘rganib, o‘z badiiy tili orqali chinakam san’atkorona ifoda etadi. Bu borada proffessor S. Mirzayeva folklordan ijodiy foydalanish masalasiga quyidagicha fikr bildirgan: “Folklordan ijodiy foydalanish ko‘pincha sintez xarakteriga ega bo‘ladi. Chunki badiiy asardagi folklor unsuri shu asarning barcha komponentlari bilan o‘ta darajada birikib ketadiki, uni tashqi tomondan ajratib olish mumkin bo‘lsa ham, biroq mazmun jihatidan alohida ajratib bo‘lmaydi. Demak, folklorga xos an’analarning badiiy adabiyotdagi o‘rni ijodiy qayta ishlanish orqali belgilanadiki, ular yozma badiiy asarning zarur tarkibiy qismiga aylanib ketadilar”. U. Otayevaning “Ertakning tugashi” she’ri ana shu jihatdan xarakterlidir:

Bola yig‘lar tomog‘i qaqrab,
Yig‘lab to‘lib-to‘lib, qon qaqshab,
Jahl bilan otar qayig‘in:
– O‘lib qoldi oltin balig‘im!
Bo‘lsa hamki qanchalar og‘ir,
Ertaklarda o‘lmasdi axir.
Ertak shirin …beshafqat hayot,

Undan tortdi bola ham, hayhot.
Garchi bir so‘z edi bor-yo‘g‘i,
Oltin edi lekin balig‘i.

Bolalik – inson hayotining eng beg‘ubor, nekbin davri. Bolalikning osmoni oq bulutdan iborat, unda zarra g‘urbat yo’q, unda zarra alam yo’q. Bolaga ertaklar aytib berar ekanmiz, u real hayotda emas, faqat fantaziyada bo‘ladigan o‘sha ertaknamo xayollarning barisiga ro‘y-rost ishonadi. Chunki uning tasavvur olami shunday, misoli oq qog‘oz. Shu sababli u ham hayot xuddi ertak singari deb, xayol qiladi, nogoh uning va yaqinlarining boshiga og‘ir sinov kelsa, u bu sinov qarshisida karaxt qolishi tabiiy, boisi u ertak eshitib, oppoq orzular ila voyaga yetgan. Ma’lumki, ertaklar an’anaga muvofiq “murod-u maqsadiga yetibdi” tarzida yakun topadi. Ertaklar tugallanmasida, asosan, optimistik ruh yetakchilik qiladi. Hayotda ham shundaymi? Shoira U. Otayeva o‘z she’rida oddiy bir bola misolida hayot mazmun-mohiyatining, turmush o‘nqir-cho‘nqirlarining ruhiy manzarasini yaratish vositasida falsafiy umumlashmalar keltirib chiqargan. “Ertak shirin… beshafqat hayot”. Ha, insonning xayollari shirin, o‘ylari go‘zal bo‘lishi mumkin, ammo hayot haqiqati achchiq. Insoniyatning fikr va tasavvuri xuddi ertaklarning tugallanishi kabi saodatmand bo‘lishi mumkin, biroq taqdirning unga ne “tuhfalari” borligi yolg‘iz Yaratganga ayondir. She’rdagi har misrada shoira sodda va dono, bolalarcha oddiy va ko‘p tajriba ko‘rgan ehtiyotkor va asov dilning kayfiyati, ehtirosini mohirona tasvirlagan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Ullibibi Otayevaning “Barmoqlar sehri” dostoni muallifning voqealar rivojida, lirik chekinishlarida xalq qo‘shiqlari va baxshi-yu hofizlarning ijod namunalaridan mohirona foydalanganligi bilan ahamiyatlidir. Ijodkor asarda Xorazmda yashab va ijod etgan ayollar – Onabibi Otajonova va Onajon Sobirovalarning hayot yo‘lini asos qilib oladi. Ular xalqimiz orasida Onabibi qori va Onajon xalfa nomlari bilan sozanda va hofiza sifatida tanilgan. Ushbu tarixiy shaxslar dostonda Nurjahon va Gulxonim obrazlarida gavdalantirilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xorazmlik shoira Ullibibi Otayeva ijodida didaktikaning namoyon bo‘lishi, o‘git, pand-nasihatning kuchayishi, ota-ona, farzand obrazlarining markazga qo‘yilishi, shuningdek, chinakam insoniy tuyg‘ular – xalq og‘zaki ijodiyotidagi qahramonlar, afsonaviy obrazlar va motivlar, maqol-u matallar, naqllar, ibora va ifodalarning faollashishi, go‘zal qo‘shiq-u doston janrlarining jonlanishi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Darhaqiqat, o‘zbek adabiyoti va xalq ijodiyotidagi insonparvarlik, g‘amxo‘rlik, sadoqat, do‘stlik va fidoiylik g‘oyalari shoiralarimiz uchun xalqning ruhi va xarakterini ifodalashda ko‘mak berdi: ulardagi o‘lmas didaktik, estetik boylik

ijodkorlar badiiy tilining qilichdek o‘tkir bo‘lishida, maqsad-nishoniga aniq urilishiga va kitobxon qalbiga chuqur kirib borishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: Fan, 2007. – B.139.
2. Hakimov M. Yozuvchi va xalq tili. – Toshkent: Fan, – B.22.
3. Otayeva U. Shukrona. – Toshkent: Yozuvchi, 1998. – B.13.
4. Mirzaeva S. O‘zbek realist adabiyotida folklor an’analari. – Toshkent: Istiqlol, 2005. – B. 6.